

“O‘ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI” KURSIDA KLASTER METODI ORQALI TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Atabayeva Mavjuda Rustamovna
UrDU akademik litseyi Geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada, geografiya ta’limida klaster metodi orqali tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishning ahamiyati haqida ma’lumot berilgan, geografiya ta’limida darslik matnidagi manbalarni tez va oson o’rganishda klaster metodining afzalliklari haqida so’z yuritilgan. O’zbekiston tabiiy geografiyasi kursini o’rganishda klaster metodining qo’llanilishi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: Klaster, pedagogic texnologiya, tanqidiy fikrlash ko’nikmasi, geografiya ta’limi.

Kirish. Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta’lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo’ladi. Yurtimizda 27.07.2017 yilda qabul qilingan PQ 3151 “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorida “O’qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o’quv-laboratoriya anjomlari va o’quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo’llabquvvatlash va rag’batlantirish, oliy ta’lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralarini ko’rish” kerakligi keltirib o’tilgan.⁵⁰ Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ta’lim mazmuni davr talabi, nazariy bilim va ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasiga mos ravishda o’zgarib turadi. Ta’lim mazmuni ijtimoiy hodisa sifatida maydonga keladi va u o’zining boshlang’ich davrida amaliy ahamiyat kasb etgan, ya’ni insonlarning hayotiy ehtiyojlari uchun zarur hisoblangan bilimga bo’lgan talabini qondirgan. Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri- bu interfaol metodlardir. Interfaol metodlar - o’quvchi va o’qituvchining birgalikdagi faoliyati bo’lib, asosan o’quvchilarni fikrlashga, kerakli xulosalarga kelishga, ularni tahlil

⁵⁰ O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/7/1] ISSN 2181-7324. FALSAFA <http://journals.nuu.uz> Social sciences. Sh.Uralova, N.Tashpulatova, Didaktik o‘yin texnologiyalaridan dars mashg‘ulotlarida foydalanish.


qilgan holda amaliyotda qo'llashga o'rgatadi. Bunda asosan o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri - o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani chiqarishga yordamlashishdan iborat. Buning sababi esa fikrlashning tanqidiy ko'nikmasining yetarlicha rivojlanmaganidir.

Adabiyotlar tahlili. Tanqidiy fikrlash - baholovchi refleksiya - fikrlashni anglatadi. Bu shaxsiy hayot tajribasiga yangi ma'lumot kiritish orqali rivojlanayotgan aqidani qabul qilmaydigan ochiq fikrlashdir.⁵¹ Bugun kunda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus uslubiy vositalarni yaratish va qo'llash kerak. Ushbu samarali vositalardan biri amerikalik o'qituvchilar J. Steele, K. Meredith, Ch. Templ va S. Uolter tomonidan ishlab chiqilgan o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasidir⁵². Ushbu ta'lim texnologiyasining maqsadi nafaqat o'qishda, balki oddiy hayotda ham zarur bo'lgan o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Bunda bizga ta'limda interfaol metodlardan biri - klaster metodi juda katta yordam beradi. Aynan muayyan davr mobaynida shakllangan ta'limning interfaol metodlari uzoq tarixiy davr va bosqichlarni bosib o'tdi, bunda o'zining ilmiy fikr va g'oyalari bilan hissasini qo'shib kelgan ko'pgina didakt olimlarni aytib o'tish joizdir: I.V. Balandin; A.G. Bermus; G.M. Grinberg, E.G. Doroshenko, I.O. Zagashev, S.I. Zair-Bek, A.M. Kamenskiy; I.K. Kondaurova; N.I. Pak, M.A. Sokolskaya; Dj.L. Stil; D. Xalpern, M.G. Yanov, M.V. Grigoryev, E.E. Morozov, S.V. Sergeev, V.A. Yasvin, M.A. Goncharov, V.A. Denisenko, A.L. Nosov, N.V. Shevchenko, K. Petersen va boshqalar.


Tadqiqot metodologiyasi. Klaster metodi - materialni tizimlashtirishning grafik usuli. Bizning fikrlarimiz endi noqulay emas, balki "klasterlashtirilgan", ya'ni muayyan tartibda joylashtirilgan, tizimlashtirilgan bo'ladi. Qoidalar juda oddiy, ya'ni masalan, "O'zbekistonning geografik o'rni va siyosiy chegarasi" mavzusini yoritmoqchi bo'lsak, bunda quyidagi klasterlardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

⁵¹ Mushtavinskaya, I.V. Darsda va o'qituvchi tayyorlash tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi [matn]/ I. V. Mushtavinskaya. – M.: Karo, 2009. - 144 b

⁵² Zagashev I., Zair-Bek S. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi [matn]/ I. Zagashev, S. Zair-Bek. - Sankt-Peterburg.: "Skifiya" va "Alyans Delta", 2003. - 284 b.



Rasm-1. O'zbekistonning orografik chizmasi klasteri.



Rasm-2. O'zbekistonning siyosiy chegarasi klasteri.



Rasm-2. O'zbekistonning siyosiy chegarasi klasteri. (murakkab klaster)

Xulosa va takliflar. Xulosada avvalo, interfaol metodning an'anaviy metoddan farqli tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak: **Birinchidan**, darsda barcha mavzular bo'yicha talaba uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi. Interfaolda ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. **Ikkinchidan**, Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlansa, faol metodda dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatiladi. **Uchinchidan**, o'qituvchining vazifalari Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berishdan iborat bo'lsa, noan'anaviyga

o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab beriladi. **To'rtinchidan**, Darsga tayyorgarlikka dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash kabi talablar qo'yilsa, interfaol metodda Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlanadi. O'quvchilar tayyorgarligi esa, oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish talablari berilsa, yangi metodda yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish talabi qo'yiladi. Interfaol usullarda vaqt talabi dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an'anaviyda dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi. Darsning modulida an'anaviy darsda har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalansa, noan'anaviyda har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi. O'quvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi noan'anaviyda O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. Bunday darslarda hamkorlik, ham ijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi;

o'quvchi-o'quvchi;

o'quvchi-kichik guruh;

kichik guruh-kichik guruh;

o'quvchi-o'qituvchi;

kichik guruh-o'qituvchi;

guruh-o'qituvchi shaklida bo'lsa, an'anaviyda o'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol bo'ladi.

Muloqot shakllari:

o'qituvchi-guruh;

o'qituvchi-o'quvchi;

o'quvchi-o'quvchi;

o'quvchi-o'qituvchi;

guruh-o'qituvchi;

shaklda

bo'ladi.

Beshinchidan, bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari an'anaviyda muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa, noan'anaviyda muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil tarzda namoyon bo'ladi. No'anaviyda mashg'ulot

shakllarining ham ahamiyati boshqacha, ya'ni unda ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar olib boriladi. Eng muhimi, noan'anaviyda mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish kabi kutilgan natijalarga erishiladi. Demak, klasterlardan dars jarayonida foydalanish fikrlar xilma-xilligiga erishishga yordam berib qolmasdan, tanqidiy fikrlashga ham undaydi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy ahamiyati shundaki, u zarur manbalarni o'rganish va saqlashda mazmunli yondashishga qaratilgan. O'quvchilar o'zlariga savol berishadi: "Bu men bilgan narsalar bilan qanday bog'liq?", "Ushbu ma'lumotlardan qanday foydalanishim mumkin?". Bu esa maktab o'quvchilarini fikrlashga, kerakli ma'lumotlarni izlashga, shu bilan ularni muammolarni mustaqil hal qilishga va yangi imkoniyatlar yaratishga undaydi.

Qolaversa, tanqidiy fikrlash orqali o'quvchilarda yangi fikr va g'oyalar erkinligi, qat'iy fikr yoki qaror qabul qilish xarakteri shakllanadi, albatta bu kelajak avlodni, prezidentimiz ta'kidlaganlaridek har tomonlama raqobatbardosh qilib voyaga yetishiga zamin bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O'. Pedagogik texnologiya (Nazariya va amaliyot) Toshkent : "Fan" 2005
2. Zagashev I., Zair-Bek S. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi [matn]/ I. Zagashev, S. Zair-Bek. - Sankt-Peterburg.: "Skifiya" va "Alyans Delta", 2003. - 284 b.
3. Mushtavinskaya, I.V. Darsda va o'qituvchi tayyorlash tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi [matn]/ I. V. Mushtavinskaya. – M.: Karo, 2009. - 144 b.
4. Zair-Bek S.I., Mushtavinskaya I.V., Darsda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, M., Ma'rifat, 2011.
5. Muhammedov G'. I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija. – Xalq so'zi, jamiyat, 15-fevral 2019 y.
6. Toshpo'latov M Klaster: mohiyat, samara va istiqbol. - <http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/53616>.
7. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/7/1] ISSN 2181-7324. FALSAFA <http://journals.nuu.uz> Social sciences. Sh.Uralova, N.Tashpulatova, "Didaktik o'yin texnologiyalaridan dars mashg'ulotlarida foydalanish".